

**ARXITEKTURA YODGORLIKALARIDA TASVIRIY VA AMALIY BEZAK
SAN'AT AHAMIYATI**

*Navoiy davlat pedagogika instituti
San'atshunoslik fakulteti o'qituvchi
Aslonov Furqat Botirovich*

Anotasiya: *Ushbu maqolada arxitektura yodgorliklarida tasviriy va amali bezak san'ati qo'llanilishi uning rivojlanishi, yodgorliklar haqida ma'lumotlar yodgorliklarda amaliy bezak namunalarini o'rni hamda temuriylar davri memorchiligi haqida fikr mulohazalar yuritilgan*

Kalit so'zlar: *Amaliy bezak san'ati, girih naqsh, islimiy naqsh, yodgorlik, me'morchilik, geometrik, naqshlar, binolar, bezash, tuzilish.*

Аннотация: В данной статье рассматриваются использование изобразительного и практического декоративного искусства в архитектурных памятниках, его развитие, сведения о памятниках, роль практических декоративных образцов в памятниках, запоминание эпохи Тимуридов.

Ключевые слова: Декоративно-прикладное искусство, цветочный узор, исламский узор, памятник, архитектура, геометрический, узоры, здания, украшения, структура

Annotation: In this article, the use of visual and practical decorative art in architectural monuments, its development, information about monuments, the role of practical decorative examples in monuments, and the memorization of the Timurid era are discussed.

Keywords: Applied decorative arts, floral pattern, Islamic pattern, monument, architecture, geometric, patterns, buildings, decoration, structure

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Talabalarning arxitektura yodgorliklarida tasviriy va amaliy san'atni qo'llashlari tizimida ularning nazariy bilimlari ahamiyati alohida e'tiborga molik. Shu jihat talabalarda kompetensiyalarni shakllantirishning metodik tizimini takomillashtirishning ustuvor tarzda ahamiyat qaratiladigan omillar sirasiga kiradi. Arxitektura yodgorliklarida tasviriy va amaliy san'atni qo'llanilishning badiiy qiymatini to'g'ri baholash, undan estetik zavq ola bilish tasviriy savodxonlik kompetensiyasini muhim komponenti hisoblanadi. Chunki asarning badiyiligi, mazmunining to'laligi, estetik ifodaliligi, shaklining mazmunliligi hamda uni muallif g'oyasiga mosligi, o'quvchilarda ma'naviy, ijtimoiy-psixologik ahamiyatga molik bo'lgan g'oyalarni jamlashga asos bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ/ METHODS)

«Me'moriy yodgorlik»ning bugungi tushunchasi. Mazkur ibora hozirgi vaqtida XVIII – XIX asrdagiga nisbatan bir qancha kengroq qo'llanishi ma'lum. Bu tushuncha «yodgorlik» iborasi asosida tuzilgan bo'lib, biron-bir tuzum, jamiyat insondan boshqasiga o'tadigan jarayonni anglatadi. Yodgorliklar tarixiy, arxeologik, san'at va shu kabi sohalarda, o'sha soha so'zi qo'shib ishlatish vositasida anglashiladi. Masalan, tarixiy yodgorlik, arxeologiya

yodgorligi, san'at yodgorligi, me'moriy yodgorlik va boshqalar. Me'moriy yodgorlik iborasi XX-asr boshlarigacha osor ul-boqiya, osor ul-atiqa singari tushunchalar vositasida ham anglashilgan. Yuqoridagi hollarning barchasida o'tmish bilan bog'liq xotira tushuniladi,¹ shunday ekan hozirgi kunda yodgorliklarda ishlatilgan tasvirlar hamda amaliy bezak san'atlarini o'rganish muhum sanaladi. Vatanimizda hali ham butun dunyoni o'ziga rom etib kelayotgan minglab tarixiy yodgorliklar qad ko'targan bo'lib, ular xalqimizning asrlar davomida shakllanib kelayotgan boy ma'naviy qadriyatları, hamda yaratuvchanlik va bunyodkorlik salohiyatini mujassam etgan, ajdodlarimizdan biz kelajak avlodlarga qoldirilgan beabajo va nodir merosdir. Bu inshootlar bizning yurtimizni uzoq o'tmishga borib taqalishi, vatanimiz aholisi, ajdodlarimizning me'morchilikda erishgan yutuqlari, ko'p asrlar oldin ham amaliy san'atning nozik qirralarini o'z inshootlarida go'zal va jozibali ko'rsatib bera olgan, betakror tasviriy hamda amaliy bezak san'at namunalaridan keng foydalanigan bo'lib yilar davomida ter to'kkan mehnatkash xalq timsoli yaqqol gavdalanadi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)


Sharq me'morchilik yodgorliklarida giriqli naqshlar ko'p ishlatilgan. Ularni bu naqsh turlarini turli ashyolarda ishlash, ta'mirlash nisbatan osonroq. Islimiylar naqshlarni ta'mirlash qiyinroq, chunki unda o'zgarish, unsurlarining joyi girixnikidek bog'langan emas. Bu go'zal naqshlar ajoyib naqqoshlar tomonidan yaratilgan bo'lib, asrlar davomida rivojlanib keldi. Me'morchilik hamda tasviriy san'at rivoji bilan bog'langan holda takomillashib bordi. Naqsh - arabcha tasvir, gul degan ma'noni anglatadi. Qush, hayvon, o'simlik, geometrik va boshqa elementlarni ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir. Ganchkorlik, kandakorlik, kashta do'zlikda, zardo'zlik, kulolchilik, zargarlik, gilam to'qish, to'qimachilik, panjaralar va boshqa har xil yo'llar bilan naqshlar ishlanib rivoj topdi. Shuning uchun tasviriy san'at o'rnnini o'simliksimon, geometrik naqshli bezaklar egalladi. Rang-barang, o'simliksimon, geometrik naqshlar, ularning o'zaro joylashishida chuqur mazmun singdirilgan. Xalqimiz ustalari tajribasi, bilim va malakalari avlodan-avlodga takamillashib vaqt sinovidan o'tdi. Ustalar tomonidan asrlar mobaynida to'plangan boy madaniy me'ros, yorqin ranglar jilosи, nozik didli bezaklar, geometrik naqshlar xalq arxitekturasida o'z aksini topgan. Geometrik va o'simliksimon naqshlar sistemasi asosan chiziqli va ranglar jilolarini boyitish, rang tasvir asarlari imkoniyatlarini rivojlantirish yo'lidan ketdi. Xalqimizning beabajo madaniy merosida asrlar tajribasi jamlangan, bobolarimizning ijodi mehnati samarasi mujassam topgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Amir Temur va Temuriylar davrida badiiy hunarmandlik yanada ravnaq topdi. Registon, Shohi-Zinda, Oqsaroy(15-16-rasmlar) kabi yirik me'moriy ansambllar yaratilib, bino tarzi rangbarang koshin va parchinlar bilan bezatilgan, bino ichi xalli naqsh va bo'yama naqshlar bilan, XV-asr 2- yarmidan tilla xalli bo'rtma «kundal» naqshi bilan bezatilgan. Yozma manbalarda Amir Temur saroylariga mavzuli tasvirlar, bo'yama naqshlar ishlanganligi qayd qilingan. O'sha davrda islom dinining ta'qiqiga qaramay, saroylar, turar joy-uyilar devorlari badiiy mazmunli (syujetli) rang tasvir asarlari bilan bezatilgan edi. Ibn Arabshohning yozib qoldirishicha saroy devorlariga, saroy ahlining turmush tarzi, Amir Temur va uning

¹ Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik i X.Sh. Po'latov vaboshq. - T.: «Ta'lif nashriyoti», «Iqtisod-moliya», 2009. -240 b

o‘g‘illarining jang qilayotgan vaqtlari, g‘alabalari tasvirlangan ekan² shunday ekan bugungi kunda yurtimizdagi arxitektura yodgorliklaridagi tasviriy va amaliy bezak san’atini namunalarini chuqur tahlil qilishimiz kerakligi taqozo etadi.



XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, yurtimizdagi arxitektura yodgorliklardagi tasviriy va amaliy bezak san’at namunalarini, ularning tarixini va rivojlanishi uzoq o‘tmishdan boshlanib hozirgi kungacha davom etib takomillashib kelayotgan san’at turlaridan biri bo‘lib, bu borada hali chuqur izlanishlar olib borish zarurligini anglatadi. Biz yoshlar bu san’at turini chuqurroq o‘rganadigan bo‘lsak, zamonaviy binolarning qurilishida ham undan keng foydalanish mumkin deb hisoblayman.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Arxitektura yodgorliklarini ta’mirlash. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik i X.Sh. Po‘latov vaboshq. - T.: «Ta’lim nashriyoti», «Iqtisod-moliya», 2009. -240 b
2. HAQBERDIYEV BAXTIYOR RUSTAMOVICH ARXITEKTURA ELEMENTLARINI LOYIHALASH (5110800-Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi talabalari uchun mo’ljallangan) O‘quv qo’llanma Andijon 2020
3. S.A.Masharipova San’at, arxitektura va shaharsozlik tarixi. Arxitektura tarixi. O‘quv qo’llanma Toshkent Arxitektura-qurilish instituti , 2013 y.
4. Аслонов, Ф. Б. (2021). Тасвирий санъат дарсларида ўқувчиларнинг ижодий фаоллигини оширишнинг педагогик-психологик хусусиятлари. Муғаллим ҳем узликсиз билимлендириў Илимий-методикалық журнал, (5).
5. Botirovich, A. F., & Shukhratovna, R. N. (2022). Pedagogical and psychological features of increasing the creative activity of students in art classes. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(1), 48-53.
6. Тофаев К. Х. Тасвирий санъатда ўқув портретлари билан ижодий портрет ўртасидаги фарқларни ўрганиш //tadqiqotlar. – 2024. – Т. 31. – №. 3. – С. 152-160.

² HAQBERDIYEV BAXTIYOR RUSTAMOVICH ARXITEKTURA ELEMENTLARINI LOYIHALASH (5110800-Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi talabalari uchun mo’ljallangan) O‘quv qo’llanma Andijon 2020

7. Tog'aev K., Normurodova H. Amaliy san'at fanini o 'qitishda o 'quvchilarning nazariy, amaliy-tasviriy jihatdan puxta bilim olishiga erishish va bu jarayonda o 'qituvchining izlanuvchanligi masalasi //Молодые ученые. - 2024. - Т. 2. - №. 5. - С. 68-75.

8. Tog'ayev K. X. Tasviriy san'at mashg'ulotlarini tabiat qo'ynida tashkil tishning afzalliklari jihatdan puxta bilim olishiga erishish va o'quvchilarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish omillariga e'tibor qaratish //Oriental Art and Culture. - 2022. - Т. 3. - №. 2. - С. 460-464.

9. Nurmuradovich E. A. Talabalarni chizmachilik darslarida geometrik yasashlarni bajarishga o 'rgatishning innovatsion metodlari //Ta'lif va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. - 2022. - С. 109-110.

10. Nurmuradovich E. A. et al. Chizmachilik oqitishda asosiy didaktik tomojillar va chizmachilik oqitish metodlari //tadqiqotlar. UZ. - 2024. - Т. 35. - №. 1. - С. 137-143

11. Axmedov D. et al. Oliy pedagogik ta'lif tizimida qalam tasvir fanini o 'qitish metodikasini takomillashtirish //international scientific and practical conference on the topic: "Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions". - 2023. - Т. 1. - №. 01.

12. Axmedov D. X., Asanova S. A. Tasviriy san'at o 'qituvchi va o 'quvchilarini tayyorlashda pedagogik intensiv o 'qitish jarayonini texnologiyalashtirishning mazmuni va mohiyati //Молодые ученые. - 2024. - Т. 2. - №. 5. - С. 56-61.

13. Bobonazarov, S. U., & Jalolov, S. C. Etnomadiy Fenomenon Sifatida Nuza San'atlari. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) <https://www.tarj.in>.

14. Ibragimovich I. X., Shovdirov S. A. THEORETICAL PRINCIPLES OF THE FORMATION OF STUDY COMPETENCIES REGARDING ART LITERACY IN STUDENTS //Science and Innovation. - 2023. - Т. 2. - №. 10. - С. 192-198.

15. Soli Tolibovich Sadiyev O'RTA ASRLAR SHARQ MINIATYURA MAKTABLARINING METODLARI // SAI. 2022. №C2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-rta-asrlar-sharq-miniaturalarining-metodlari> (дата обращения: 26.10.2023).

16. Niyazovish G. I. WAYS OF USE OF MODERN INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN FINE ARTS CLASSES AND THROUGH THE IMPROVEMENT OF IDEAS OF NATIONAL INDEPENDENCE TO STUDENTS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. - 2021. - Т. 9. - №. 12. - С. 234-237.

INTERNET MANBA:

1. <https://library.samdu.uz/>
2. <https://elib.buxdu.uz/i>